

## AYOLLAR TOMONIDAN SODIR ETILGAN JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA REJALASHTIRISH HAMDA VERSIYALAR TUZISH

Zunnurova Laylo Inomjon qizi

Namangan davlat universiteti yuridik fakulteti yurisprudensiya yo‘nalishi 4-kurs talabasi  
ubaydullayevalaylo99@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18976403>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilishda rejalashtirish va versiyalar tuzishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash hamda kriminalistik amaliyotni yanada takomillashtirish yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ayollar jinoyatchiligi, tergov rejalashtirish, kriminalistik versiyalar, gender kriminologiya, jinoyat tahlili, qonun, huquqbuzar ayollar.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются специфические особенности планирования и создания версий при расследовании преступлений, совершенных женщинами, а также пути дальнейшего совершенствования криминалистической практики.

**Ключевые слова:** преступления женщин, планирование расследований, криминалистические версии, гендерная криминология, анализ преступлений, право, женщины-преступницы.

**Abstract:** This article highlights the identification of specific features of planning and creating versions in the investigation of crimes committed by women, as well as the further improvement of criminalistic practice.

**Keywords:** women's crime, investigative planning, criminalistic versions, gender criminology, crime analysis, law, women offenders.

### Kirish

Hozirgi kunda sud-huquq sohasining yanada rivojlanishi natijasida yuridik fanlar tizimida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Shuningdek, kriminalistika fanini oladigan bo‘lsak, ayollar jinoyatchiligi yoki ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni aniqlash, topish, ularning motiv, maqsadini topish bu fanda alohida tadqiqot obyekti sifatida tobora ko‘proq e‘tibor qaratilyotganini guvohi bo‘lishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi va Ichki ishlar vazirligining hisobotlari asosida yig‘ilgan ma‘lumotlarda ko‘rsatilishicha so‘ngi yillarda jinoyatlarning 12-13%<sup>36</sup> aynan ayollar tomonidan sodir etilganligi ma‘lum bo‘ldi. Ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar erkaklar sodir etgan jinoyatlardan motivi, ijro usuli va boshqa xususiyatlari bilan farq qiladi.

Tergov jarayonida versiyalar tuzish va rejalashtirish kriminalistika fanining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ammo hozirda ishlab kelayotgan metadalogiya asosan erkaklar sodir etgan jinoyatlar uchun foydalaniladi va ayollar sodir etgan jinoyatlarni ochishda bir muncha qiyinchilik tug‘dirmoqda.

Bu tadqiqotning maqsadi ham ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilishda versiyalar tuzish va rejalashtirish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- Oilaviy-maishiy nizolar - 34%
- Moddiy manfaatdorlik - 28%
- Qasos olish - 18%
- Hissiy impuls - 12%
- Boshqa sabablar - 8%

Erkaklar bilan taqqoslab ko‘rsak ayollardagi hissiy-emotsional komponent ancha kuchliroq. 67% hollarda jinoyat sodir etilishidan oldin ayollarda uzoq davom etgan psixologik stressli holat mavjud bo‘lgani aniqlandi.

### Jabrlanuvchi bilan munosabat:

- Yaqin qarindoshlar - 42%
- Tanishlar - 38%
- Notanishlar - 20%<sup>37</sup>

<sup>36</sup> O‘zbekiston Respublikasi IIV Statistika departamenti ma‘lumotlari, 2020-2024.

<sup>37</sup> O‘zbekiston Respublikasi IIV Statistika departamenti ma‘lumotlari, 2020-2024.

## **“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

Bu ma’lumotlardan aniqlash mumkinki, ayollar asosan o‘zi bilgan shaxslarga qarshi jinoyat sodir etadilar, versiyalar tuzishda buni ham inobatga olish zarur. Shu asosda quyidagi asosiy versiya tiplarini tuzishimiz mumkin:

1. Oilaviy-maishiy versiyalar (52%): Uzoq davom etgan konflikt, er tomonidan zo‘ravonlik, farzandlarni himoya qilish.

2. Moddiy-iqtisodiy versiyalar (31%): Meros olish, sug‘urta pulini olish, qarzlardan qutulish.

3. Psixologik versiyalar (12%): Ruhiiy kasallik, depressiya, post-travmatik stress.

4. Qo‘shma versiyalar (5%): Bir necha motivning kombinatsiyasi<sup>38</sup>

Ayollar ishlarida versiyalar tuzishda erkaklarnikidan farqli ravishda bo‘lishi kerak. Uning yo‘nalishlariga quyidagilarni kiritish mumkin.

✓ Psixologik-psixiatrik ekspertiza o‘tkazish;

✓ Oilaviy munosabatlarni chuqur o‘rganish;

✓ Moliyaviy vaziyatni tahlil qilish;

✓ Ijtimoiy muhit va aloqalarni tekshirish;

✓ Oldingi zo‘ravonlik faktlarini aniqlash;

Shuningdek ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarda moddiy dalillarni ham o‘ziga xos xarakterlari mavjud hisoblanadi. Xususan dalillarni yashirish usullariga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak erkaklar bilan taqqoslaganda ayollar anchagina passiv usullarni qo‘llaydi.

Tergovni rejalashtirish bosqichiga o‘tadigan bo‘lsak avval axborot yig‘iladi ya‘ni jinoyat sodir etilgan joyva sharoitlar, gumon qilinuvshining shaxsiy, moddiy va psixologik holati shuningdek guvohlarning ko‘rsatmalari. Keying bosqichda tergovchi qaysi ekspertizalar amalga oshirilishi zarurligini, tergov harakatlari ketma-ketligini, dalillar to‘plash kabi vazifalarni belgilab oladi va bajaradi.

Bu maqolada ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish bo‘yicha metodologik tavsiyalar belgilab o‘tildi. Bu tavsiyalar tergov samaradorligini oshirishga yordamlashish bilan birgalikda noto‘g‘ri versiyalar tufayli vaqt va resurslarni yo‘qotmaslik imkonini beradi. Shuningdek bu mavzu bo‘yicha takliflarimni beradigan bo‘lsam. Birinchi navbatda hozirda ko‘plab sohalarda foydalanib kelayotga sun‘iy intellektni qo‘llagan holda ayollar jinoyatchiligi versiyalarini avtomatik modellashtirishni amalga kiritish kerak. Qishloq va shaharda yashovchi ayollarning psixologiyasi va yashash tarzi ham bir-biridan tubdan farq qiladi va albatta ular sodir etgan jinoyatlar ham, kelajakda bunga ham alohida yondashuv kerak. Keying navbatda yoshlarga bog‘liq bo‘lgan xususiyatlarni ya‘ni yosh, o‘rta yosh va keksa yoshdagi ayollar jinoyatlarini ham tahlil qilish zarur.

### **Xulosa**

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash joizki, ayollar asosan o‘z tanishlariga, yaqinlariga nisbatan jinoyat sodir etadilar va hissiy-psixologik motivatsiya asosiy o‘rinda bo‘ladi. Versiyalar tuzishda gender omillarini hisobga olish va tahlil qilish zarur. Tergovni rejalashtirish ham bosqichma bosqich amalga oshirilishi va har bir bosqichda gender xususiyatlari inobatga olinishi kerak. Qo‘shimcha ravishda tavsiya beradigan bo‘lsam, tergov bo‘limlarida ayollar jinoyatchiligi bo‘yicha ixtisoslashgan guruhlar tashkil etish va bu guruhlariga asosan gender kriminalologiya va psixologiya bo‘yicha chuqur bilimlarni berish lozim deb hisoblayman. Hozirgi kunda ayollar jinoyatchiligi bo‘yicha metodologik qo‘llanma ishlab chiqilmagan shu sababli uni yaratish fan uchun ijobiy o‘zgarish bo‘ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Lombroso C., Ferrero G. The Female Offender. London: Fisher Unwin, 1895.
2. Adler F. Sisters in Crime: The Rise of the New Female Criminal. New York: McGraw-Hill, 1975.
3. Ключкова Е.Н. Криминологическая характеристика женской преступности. Москва: ВНИИ МВД России, 2008.
4. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. Toshkent, 2023.
5. O‘zbekiston Respublikasi IIV Statistika departamenti ma'lumotlari, 2020-2024.
6. Melnikova N.A. Gender-specific aspects of criminal investigation. International Journal of Criminology, 2020, 15(3): 234-256.
7. Tog‘ayeva.M. Xotin-qizlar tomonidan oila-turmush doirasida sodir etiladigan huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishning xususiyatlari.// O‘zbekiston respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi huquqbuzarliklar profilaktikasining dolzarb muammolari: nazariya,

<sup>38</sup> Melnikova N.A. Gender-specific aspects of criminal investigation. International Journal of Criminology, 2020, 15(3): 234-256.

**“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**  
amaliyot va qonunchilik tahlili respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent – 2022. – B.407

8. Jaxonov A. Oila-turmush munosabatlari doirasida sodir etilgan jinoyatlardan jabrlanishning sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlar.// O‘zbekiston respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi huquqbuzarliklar profilaktikasining dolzarb muammolari: nazariya, amaliyot va qonunchilik tahlili respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari